

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI



*Bitiruv
malakaviy
ishi*



Samarqand - 2017

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

INGLIZ TILI FAKULTETI

INGLIZ TILI O'QITISH METODIKASI VA AMALIYOTI KAFEDRASI



SUBXANOVA PARVINA FARMONOVNA

(4 o'zbek 02 guruh)

5120100 – Filologiya va tillarni o'qitish (ingliz tili) ta'lim yo'nalishi
bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun

**INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA INTENSIVLIKNI
IFODALOVCHI FE'LLARNING QIYOSIY TADQIQI**

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: *Z.I.* f.f.n.Rasulov Z.I.

Ilmiy maslahatchi: f.f.n. SHomurodova SH.J.

Mazkur bitiruv malakaviy ishi
"Ingliz tili o'qitish metodikasi va
amaliyoti" kafedrasida
muhoqama qilindi va himoyaga
tavsiya etildi.

Bayonnoma № *10* 2017 yil *19* may

Kafedra mudiri: *Sh.J.* f.f.n. Shomurodova Sh.J.



Samarqand-2017

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. INTENSIVLIK TO'G'RISIDA UMUMIY MA'LUMOT	8
1.1 Ingliz tilida harakat tarzida doir xususiyatlar	8
1.2 Fe'llarga xos ma'noviy xususiyatlar	10
1.3 Intensivlik aspektuallikning bir bo'lagi sifatida.....	26
Bob bo'yicha xulosa	28
II BOB. INTENSIVLIKNING O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI TASNIFI	30
2.1 Ingliz va o'zbek tillarida intensivlik va uning turlari	30
2.2 Ingliz tilida intensivlikning ifodalovchi fe'llari	35
2.3 O'zbek tilida intensivlikning ifodalovcni fe'llari	45
2.4 Ingliz va o'zbek tilida intensivlik tipologiyasiga doir	53
Bob bo'yicha xulosa	56
XULOSA	58
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	59

KIRISH

O'z tarixiga, to'plangan tajribaga, dunyoda eng katta bo'yluk sanalgan intellektual salohiyatga chuqur hurmat bilan yondoshish har qanday davlatning moddiy va ma'naviy taraqqiyoti asosini tashkil etadi. O'zbekistonning dunyodagi ko'plab davlatlar bilan xalqaro iqtisodiy va madaniy aloqalarining rivojlanib borayotgan bu davrida chet tillarni o'rganishga bo'lgan ehtiyoj yanada kuchaydi. O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "Jahon hamjamiyatida o'zining munosib o'rnini egallashga intilayotgan davlat uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning mohiyatini tushunish murakkab emas, zero bizning xalqimiz o'z buyuk kelajagini xorijiy hamkorlar bilan hamjihatlikda ko'radi" [3;138]. Shu boisdan, pedagogika, filologiya kabi fan yo'nalishlarida ham didaktika, lug'atshunoslik, matn nazariyasi, tarjimashunoslikning yangi asoslarini ishlab chiqishni jadallashtirish kabi muhim vazifalar turibdi. Mana shu vazifalarni hal qilish haqida so'z yuritar ekan, I.A.Karimov, "Endilikda adabiyotimizning eng yetuk asarlarini bevosita ona tilimizdan g'arb va sharq tillariga tarjima qilishga qaratilgan ishlarni kuchaytirishimiz zarur. Buning uchun xorijiy tillarni, adabiyot va badiiy tarjima san'atining nazariy va amaliy jihatlarini har tomonlama puxta egallagan mutaxasislarni tayyorlash imkoniyati bizda mavjud" degan fikrlarni ta'kidlab o'tadi [3;139].

Yaqin yillarda fan va ta'lim soxasiga alohida etibor qaratilishi tadqiqotchilar oldiga tilshunoslikning nazariy va amaliy soxalarida mas'uliyatli vazifalarni qo'ydi. Bunday vazifalardan biri chet tillarini o'rganish, o'rgatish hamda uni atroflicha chuqur lingvistik tahlil qilishdir. O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimovning tabiri bilan aytganda, "Bugun jahon xamjamiyati o'ziga munosib o'rin egallashga intilayotgan mamlakatimiz uchun, chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o'z buyuk kelajagini ko'rayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo'qdir"[2;3]

bormoqda. Chet ellar bilan har jabhada bo'layotgan bunday aloqalari o'z navbatida xorijiy tillarni mukammal biluvchi, yuqori malakali mutaxassis kadrlar bulgan extiyojni kuchaytirmoqda. Bu borada yurtboshimiz, I.A.Karimov o'zining Fanlar Akademiyasi vakillari bilan bo'lgan uchrashuvda ta'kidlaganlaridek, ilmu-fanning chinakam ravnaqiga erishish uchun tashqi dunyoga eshikni keng ochish kerak. Jaxon fani yutuqlaridan vaqtida to'la xabardor bo'lish tengsiz ahamiyatga egadir. Buning uchun xar bir ilmiy xodim chet tillarini puxta egallashi zarur.

Haqiqatdan ham, O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan boshlab uning xorijiy mamlakatlar bilan bo'lgan aloqalari yanada yuksalib bormoqda. Chet ellar bilan har jabxada bo'layotgan bunday aloqalari o'z navbatida xorijiy tillarni mukammal biluvchi, yuqori malakali mutaxassis kadrlar bulgan extiyojni kuchaytirmoqda. Bu borada birinchi yurtboshimiz I.A.Karimov o'zining Fanlar Akademiyasi vakillari bilan bo'lgan uchrashuvda ta'kidlaganlaridek, ilmu-fanning chinakam ravnaqiga erishish uchun tashqi dunyoga eshikni keng ochish kerak. Jaxon fani yutuqlaridan vaqtida to'la xabardor bo'lish tengsiz ahamiyatga egadir. Buning uchun har bir ilmiy xodim chet tillarini puxta egallashi zarur.

Xalqning ma'daniy qadriyatlari, ma'naviy merosi ming yillar mobaynida Sharq xalqlari uchun qudratli ma'naviyat manbai bo'lib xizmat qilgan. Uzoq vaqt davom etgan qattiq mafkuraviy tazyiqqa qaramay, O'zbekiston xalqi avloddan avlodga o'tib kelgan o'z tarixiy va madaniy qadriyatlarini xamda o'ziga xos an'analarini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi.

Darhaqiqat, til vositasida axborot almashinuvi, o'zaro hamkorlik, kommunikatsiya yuzaga keladi. Ilm-fan, texnikaning gurkirab rivojlanishi va ilmiy-texnik axborotning kengayishi munosabati bilan tilshunoslik va tarjimaning amaliy ahamiyati ham oshdi. O'zbek tilida ingliz tili nazariy va amaliy grammatikasi, ingliz va o'zbek tillari qiyosiy grammatikalarining etishmasligi kabilar inobatga olinib, ularga bo'lgan ehtiyoj bugungi kunda tilshushunos olimlar oldiga mavjud muammolarning echimini topish vazifalarini qo'yarmoqda.

Ushbu vazifalarni bajarishda albatta birinchi o'rinda lingvist tipologlar, germanistlar, qiyosiy xamda tilshunos tarixchilar va sotsiolingvistlar etibor qaratishlari kerak.

Bitiruv malakaviy ishimiz ingliz va o'zbek tillarida intensivlikning ifodalanishi bo'lib, ingliz va o'zbek tillaridagi fe'llarning simantik jihatdan kelib chiqqan holda foydalanishini o'zaro qiyoslab o'rganishdir.

Mavzuning dolzarbligi – yuqorida ta'kidlanganlardan kelib chiqib, turli tizimli tillarda, jumladan, ingliz va o'zbek tillarida intensivlikni ifodalash aniq lisoniy metodlar asosida qiyosiy-tipologik jihatdan o'rganish ilk bor tadqiq etilishidadir.

Fe'l tadqiqotida harakat tarzlarini tadqiq etish keng tus olgan. Bizning bitiruv malakaviy ishimiz ham fe'lning leksik-semantik tasnif guruhlariga kiruvchi intensivlikni siyosiy tadqiq etishga qaratilgan. Fe'l intensivlik xususiyatlarini taqqoslanishi fe'l va fe'l birikmalarida semantik xusisiyatni ochib berishga qaratiladi. Xususan intensivlik semantikasi ham aspektalogiya nuqtayi nazaridan tadqiq etiladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Bitiruv malakaviy ishimiz hali fanda to'la o'rganilmagan hisoblanadi. Ingliz tilida intensivlikni ifodalovchi fe'l va fe'l birikmalari aniq o'rganib chiqilmagan. O'zbek tilshunosligida esa bu bitiruv malakaviy ishimiz umuman o'rganib chiqilmagan, intensivlikni ifodalovchi fe'l va fe'l birikmalarini o'zbek tilshunosligida ko'makchi fe'llar yordamida yasalganligini ko'rishimiz mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi- Ushbu bitiruv malakaviy ishining maqsadi – ingliz tilida intensivlikning ifodalanishi va intensivlik o'zbek tilida qanday ifodalanadi. Ingliz va o'zbek tillarida intensivlikni ifodalovchi fe'llar o'rtasidagi o'xshashliklar va noo'xshashliklar o'zaro qiyoslash asosida topishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari. Tadqiqotni oldiga qo'yilgan maqsadlari amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni bajarishga e'tibor qaratildi.

Birinchiidan, ingliz tilida intensivlik qanday ifodalanadi.

Ikkinchiidan, ingliz tilida intensivlikni qanday fe'llar ifodalashini aniqlash.

Uchinchiidan: o'zbek tilida intensivlikni qanday fe'llar ifodalashini aniqlash.

To'rtinchiidan: ingliz va o'zbek tillaridagi intensivlikni ifodalovchi fe'llar semantikasini aniqlash.

Tadqiqotning obyekt va sub'yekti. Bitiruv malakaviy ishimizning obyekt va fe'l birikmalari hisoblanadi. Bitiruv malakaviy ishimizning predmeti esa ingliz va o'zbek tillarida intensivlikni ifodalovchi fe'l va fe'l birikmalarining ushbu tilshunosliklarda qiyoslash.

Tadqiqotning metodologik va nazariy asoslari . Tilshunoslikning leksika, semantika, aspektuallik, qiyosiy tilshunoslik borasidagi nazariy yo'nalishlari hamda Antipova A.A, Xojiyev A, Rozina T.I. kabi tilshunoslarning nazariy qarashlari tadqiqotning metodologik va nazariy asoslarini tashkil etadi.

Tadqiqot metodlari. Maskur bitiruv malakaviy ishimiz component tahlil qiyosiy topologik metodlardan foydalaniladi.

Himoyaga olib chiqiladigan asosiy holatlar . Bitiruv malakaviy ishimizning tahlil va xulosalari asosida quyidagilar himoyaga olib chiqilishi ko'zda tutiladi:

1. Intensivlik aspektiologiyaning bir bo'lagi sifatida qaraladi.
2. Ingliz tilidan intensivlik fe'l leksemalarining leksik semantik ma'nolari asosida ko'rib chiqiladi.
3. Ingliz tilida intensivlik gapdagi boshqa bir birliklar yordamida yasala oladi.
4. O'zbek tilida intensivlik ko'makchi fe'llar yordamida yasaladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Bitiruv malakaviy ishimiz ingliz va o'zbek tilshunosligida ilmiy jihatdan o'rganilmagan. Ingliz tilida intensivlik fan doirasida intensivlik hodisasi tadqiq qilish fan doirasida ilmiy jihatdan yangi mavzu hisoblanadi.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati. Ingliz va o'zbek tillarida intensivlik hodisasi aspektuallik xususan harakat tarzi tushunchalari doirasida tadqiq etiladi. Bu hodisa gapdagi turli sintaktik birliklar yordamida hosil bo'lishi isbotlanadi. Bu holning qardosh bo'lmagan tillarda qiyoslanishi bitiruv malakaviy ishimizning nazariy ahamiyatidir.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati . Bitiruv malakaviy ishimiz materiallari maktab, litsey , kollej o'quvchilari uchun tarqatma material sifatida foydalanishi mumkin .

Bitiruv malakaviy ishimizning strukturaviy tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishimiz kirish qismidan hamda ikkita bob , xulosa qismidan tashkil topgan. Kirish qismida biz bitiruv malakaviy ishimizning yangiligini, uni qay darajada o'rganilganligini ahamiyatli tomonlari ko'rib chiqilgan. Birinchi bob intensivlik hodisasi xususida. Ikkinchi bobda ingliz va o'zbek tillarida intensivlik hodisasi qanday ifodalanishi va qardosh bo'lmagan bu ikki til doirasida bu hodisaning o'xshashlik va noo'xshashlik tomonlari ko'rib chiqiladi.